

BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINING NUTQINI O`STIRISHDA MUSTAQIL ISHLARDAN FOYDALANISH

M. Shodiyeva,

Qashqadaryo VXTXQTMOI

Boshlang`ich ta`lim oldida turgan vazifa kichik yoshdagi o`quvchilarning o`quv-biluv ko`nikma va malakalarini shakllantirishdir. O`quv-biluv ko`nikmasi shakllangan kishigina bilimlarni puxta o`zlashtirishi mumkin. O`quvchilarning boshlang`ich ta`limda beriladigan bilimlarni bilishga, ko`nikma va malakalarni egallashga bo`lgan qiziqishining, intilishining qanchalik samara berishi ta`lim metodlarining to`g`ri tanlanishi va qo`llanishiga bog`liq. Darsda va darsdan tashqari mashg`ulotlarda o`quvchilarga mustaqil ish topshiriqlarining berilishi ana shunday samarali usullardan biri hisoblanadi.

Mustaqil ishlar o`quvchining o`qituvchi yordamisiz bajarishiga mo`ljallanishi nazarda tutilsa, mustaqil ish topshiriqlari va tashkil etish shakllarini o`quvchilarning yoshi va saviyasiga moslab ishlab chiqish talabi qo`yiladi. Chunki o`quvchi bu jarayonda mustaqil izlanadi, egallagan bilimlarini eslaydi, fikrlaydi va topshiriqni bajarishga harakat qiladi. Uni bajarishga kuchi yetmasa, topshiriqni bajara olishga bo`lgan ishonchi yo`qoladi. Demak, mustaqil ish topshiriqlarini berish uchun o`quvchilarning yosh, psixologik, individual xususiyatlariga alohida e`tibor qaratish lozim. Mustaqil ishlarni ta`lim jarayoniga singdirish to`g`risida bir qancha olimlar tomonidan fikr – mulohazalar keltirilgan.

Mustaqil ish o`zi nima?

R.M.Mikelson ta`rifi:

“O`quvchilarning mustaqil ishlari deb, o`qituvchining bevosita yordamisiz, ammo uning nazorati ostida bajariladigan vajifalarni tushunamiz”.

O.Roziqov ta`rifi:

“O`quvchilarning mustaqil ishlari ta`limning har bir bosqichida qo`llaniladi, o`qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko`rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, nazariy-amaliy materiallar ustida uyushtiriladigan o`quvchilarning ongli

ravishda faollik bilan faoliyat ko`rsatishlarini ta`minlaydigan grammatik, orfografik vazifalardir”.

Dars jarayonida mustaqil ishlarni tashkil qilish uchun quyidagi muhim omillarga e`tibor qaratish lozim:

-mustaqil ish topshiriqlarini berish uchun o`quvchilarning yosh, psixologik, individual xususiyatlariga alohida e`tibor qaratish;

-o`tilgan va yangi material o`rtasida mantiqiy bog`lanish hosil qilish;

-mustaqil ishlar faqat darslikdagi materiallardan emas, qo`shimcha materiallarni ham o`z ichiga olishiga erishish;

-mustaqil ishlarni tashkil qilishda oddiydan murakkabga qarab borish prinsipiga rioya qilish;

-o`quvchilar faolligini oshirishga xizmat qilish;

-mustaqil ishlarni tashkil qilishda ko`rgazmalilikka erishish;

-o`quvchilarning mustaqil ishlar natijasida egallaganlarini hayotga tatbiq etishi.

Mustaqil ishlar barcha ish faoliyatiga: mustahkamlash, takrorlash, umumlashtirish va nazorat darslariga, uy vazifalariga tatbiq etish mumkin.


Quyida 4-sinflarda “So`z turkumlari haqida umumiy ma`lumot” mavzusi asosida “Klaster” metodidan foydalanib, o`quvchilarni kichik guruhlariga bo`lib, mustaqil bajarishlari uchun mo`ljallangan topshiriqdan namuna keltiramiz:

Har bir guruh vatmanga topshiriqlarni jamoa bo`lib mustaqil bajaradi. Bunda jamoa o`zaro bir-biriga yordam ko`rsatsa-da, lekin o`qituvchining yordami bo`lmaydi.

O`quvchilarga quyidagicha savol-topshiriqlar beriladi:

1-topshiriq. So`zlarning ma`no guruhlarini yozing va har bir guruhga atama bering.

O`quvchilar ishi:




2-topshiriq.


1-guruh: Gul nomlariga so`z topadi.

2-guruh: Daraxt nomlariga so`z topadi.

1-guruh:



2-guruh:



Mazkur mustaqil ishdan maqsad o`quvchilarning nazariy bilimlarini aniqlash va shu asosda nutqini so`zlar bilan boyitishdan iborat.

O`quvchilarning sifatning leksik ma`nosi haqidagi tushunchalari chuqurlashtirish, shaxs va narsani har tomonlama tasvirlash malakasi berilgan shaxs va narsalarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish, berilgan belgilariga qarab qaysi narsa ekanini aniqlash, narsalarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini aytish kabi mashqlar asosida o`stiriladi. Masalan, quyidagi ishlar mustaqil ish qilib berilishi mumkin:

1. Shaxsning xususiyatini ifodalaydigan sifatlar topib yozing.

_____, _____, _____, _____, _____ o`quvchi.

Aqlli, odobli, a`lochi, chaqqon, ziyrak o`quvchi.

2. Narsalarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash:

_____, _____, _____, _____ olma.

Shirin, qizil, katta, dumaloq olma.

3. Narsalarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini aytish:

O`zi shirin tukligina,

Mazasi ham totligina. (shaftoli)

Test yechish ham mustaqil ish turlaridan sanaladi. Testlar nutqni soʻzlar bilan boyitishga qaratilgan leksik testlar boʻlmogʻi lozim. Masalan:
Xususiyat bildiruvchi sifat qoʻllangan qatorni toping.

- a) ulugʻ, dumaloq;
- b) shoʻx, qiziquvchan;
- c) taxir, yoqimli;

Mustaqil ishlar asosida tashkil qilingan darslarning oʻquvchilarning bilim olishdan iborat faoliyatini faollashtirish va dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati quyidagilardan iborat:

- oʻquvchilarning oʻz oldiga maqsad qoʻyish va undan natija olishga oʻrgatish;
- erkin, mustaqil va ijodiy fikrlashga oʻrgatish;
- oʻz fikr-mulohazalarini bayon etish va uning toʻgʻriligini boshqalarga isbotlash;
- yakka va juftlikda ishlash koʻnikmasini shakllantirish;
- maʼlumotlarni tahlil va tanqid qilishga oʻrgatish;
- oʻz iqtidorlarini namoyish qilish, ijod namunalarini taqdim etishga motiv hosil qilish;
- berilgan imkoniyatlardan eng maʼqulini tanlash;
- oʻz bilimlarini bir tizimga solish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va baholashga oʻrgatish.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ishlarning ahamiyati shundan iboratki, oʻquvchilar oʻz bilim va koʻnikmalari - hayotiy tajribalariga, darslik va boshqa manbalardan egallaganlariga tayangan holda hamda shu asosda chiqargan xulosa, tahlillariga asoslanib mustaqil faoliyat yuritadilar. Bundan koʻrinib turibdiki, mustaqil ishlash jarayonida oʻquvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati va shu bilan birga bilish jarayoni faollashadi.